



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARIDAN FOYDALANISH

Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0002-0997-6689

shahbozrajabboyev@gmail.com

Xamidova Pokiza Mansurovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-000609414789

pokizakhamidova085@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlaridan foydalanishning o'sishini, uning iqtisodiyotning turli sohalariga ta'sirini va keltirib chiqaradigan yangi imkoniyatlar va muammolarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda AKT xizmatlaridan foydalanishning samaradorligi va iqtisodiy o'sishga ta'siri, shuningdek, iqtisodiy tengsizlik va kiberxavfsizlik kabi muhim jihatlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), kiberxavfsizlik, iqtisodiy tengsizlik, raqamlashtirish, axborot-kommunikatsion xizmatlar faoliyati.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Ражабоев Шахбоз Шоди угли

Самаркандский институт экономики и сервиса

Хамидова Покиза Мансуровна

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. Данная статья посвящена анализу роста использования услуг информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), его влияния на различные отрасли экономики, а также новых возможностей и проблем, которые он создает. В исследовании рассматривается эффективность использования услуг ИКТ и их влияние на экономический рост, а также такие важные аспекты, как экономическое неравенство и кибербезопасность.

Ключевые слова: цифровая экономика, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), кибербезопасность, экономическое неравенство, цифровизация, информационно-коммуникационные услуги.

USING INFORMATION AND COMMUNICATION SERVICES IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

Rajaboyev Shahboz Shodi ogli

Samarkand Institute of Economics and Service

Khamidova Pokiza Mansurovna

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. *This article is devoted to the analysis of the growth of the use of information and communication technologies (ICT) services, its impact on various sectors of the economy, and the new opportunities and problems it creates. The study examines the effectiveness of using ICT services and their impact on economic growth, as well as important aspects such as economic inequality and cyber security.*

Keywords: *digital economy, information and communication technologies (ICT), cyber security, economic inequality, digitization, information and communication services.*

Kirish.

Dunyo miqyosida fan va texnologiya jadallik bilan rivojlanib kelmoqda, insoniyatning bilim va tajribasini qo'llash orqali yangi texnologiyalarni yaratish, takomillashtirish va qo'llash jarayoni doimiy va uzluksiz davom etib, hamda jamiyatning barcha jihatlariga ta'sir ko'rsatadigan murakkab jarayon sifatida bo'lib kelmoqda, jumladan raqamli iqtisodiyotning tez fursatlarda rivojlanishi axborot-kommunikatsiyon (AKT) xizmatlaridan foydalanishni tubdan o'zgartirdi, hamda ularni iqtisodiyotning turli sohalarida muhim omilga aylantirdi. Bugungi kunda AKT xizmatlari nafaqat aloqa vositalari, balki ishlab chiqarish, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda samaradorlikni oshirib, dunyo miqyosida hamkorlik qilish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Ushbu mavzuda izlanish olib brogan xalqaro tadqiqotchilardan:

Klaus Schwab "To'rtinchi sanoat inqilobi" tushunchasini ilgari surgan. U raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot integratsiyasining ahamiyatini ta'kidlagan. AKT xizmatlari raqamli transformatsiyada asosiy dvigatel ekanligini aytgan. ("To'rtinchi sanoat inqilobi" 2016)

Manuel Castells AKT va "axborot jamiyati" tushunchasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan o'zgartirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatgan. ("Axborot asri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat" 1996-1998).

Don Tapscott Raqamli iqtisodiyot va blockchain texnologiyalarining rivojlanishi haqidagi kitoblari bilan mashhur. U axborot xizmatlari biznes modellarini qanday o'zgartirishini o'rgangan. ("Raqamli iqtisodiyot: yangi iqtisodiy tartibotning va'dalari va xavflari" 1995).

Robert Solow Raqamli texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlagan. Ammo u "texnologiyalarni iqtisodiy statistika orqali o'lchash qiyin" ekanligini ham qayd etgan. ("Texnologiya va iqtisodiy o'sish" 1957).

Shundan O'zbekistonlik olimlar ham jumladan, Rustam Karimov AKT rivoji va raqamli iqtisodiyot masalalarini o'rganib, xizmatlar sohasidagi texnologik jarayonlarni tezlashtirishning ahamiyatini yoritgan. ("O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi: holati, muammolari va istiqbollari" 2020).

Botir Xo'jayev O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish strategiyasi va AKT infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy ishlari bilan tanilgan. ("Raqamli iqtisodiyotga o'tish: O'zbekiston tajribasi" 2021).

O'zbekiston Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi farmoni Ushbu farmonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur raqamli xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning iqtisodiyotda AKTni qo'llash faoliyatidagi iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

"Raqamli iqtisodiyot" yoki "Digital Economy" atamasi barcha rivojlangan davlatlarda keng qo'llanishidan xabardormiz. Raqamli iqtisodiyot atamasi birinchi bor 1995-yilda amerikalik olim Don Tepkott tomonidan asos solingan va aynan shu yilda dasturchi Nikolas Negraponte tomonidan amaliyotga kiritilgan. Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyat hisoblanib, bunda obyekt va subyekt o'rtasidagi bog'lanishlar (faoliyat) ya'ni raqamli kommunikatsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi. Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasi, hamda kriptovalyutalar raqamli iqtisodiyotning bir bo'lagi hisoblanadi. Masalan: elektron savdo va xizmatlar, texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar (sun'iy intellekt), masofaviy ish, onlayn ta'lim, elektron bank xizmatlari va boshqalar. Bundan ma'lumki, bu iqtisodiyot turning afzalliklari ichida qulaylik, samaradorlik, va ko'proq imkoniyatlar mavjud.

Shu bilan birga Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH, Yaponiya kabi dunyoning yetakchi davlatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston ham, bu sohani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etgan. Hozirgi kunda mamlakatda raqamli iqtisodiyotlarni integratsiya qilish, davlat boshqaruvi, tibbiyot, ta'lim, taransport, bank-moliya va boshqa sohalarni raqamlashtirish bo'yicha bir qator muhim ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan 2020-yil 5-oktabrda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining raqamlashtirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarni raqamlashtirish nazarda tutiladi:

- elektron hukumat tizimini rivojlantirish;
- sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish;
- raqamli infrotuzilmani kengaytirish;

Raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda "Yalpi ichki mahsulot" hajmi va aholi son boshiga ulushi ham yuqoridir.

Raqamli iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiyon texnologiyalar yordamida tannarxni kamaytirish va buning natijasida optimallashtirish, hamda samaradorlik oshishiga erishiladi.

XX-asr oxiri – XXI-asr boshlarida jahon iqtisodiyoti raqamli transformatsiyadan o'tdi yoki AKT foydalanishga asoslangan iqtisodiyotga o'tish boshlandi. Bu o'tish bir necha omillar bilan bog'liqdir, bular;

Texnologik taraqqiyot: Kompyuter texnologiyalari rivojlanishi, internetning keng tarqalishi, mobil aloqa texnologiyalari, dasturiy ta'minotning rivojlanishi;

Ijtimoiy-madaniy omillar: Ma'lumotga bo'lgan talabning oshishi, odamlarning yangi texnologiyalarga moslashuvi;

Iqtisodiy omillar; Globalizatsiya, bozorning liberallashtirish va investitsiyalar oqimi;

Mazkur omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, birgalikda Axborot-Kommunikatsiyon Texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirdi.

AKT xizmatlarining iqtisodiyotga ta'siri:

➤ ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: AKT vositalari ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va ischi kuchini samaraliroq boshqarish imkonini beradi. Bu esa unumdorlikning oshishi va xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

➤ globalizatsiya va bozorlarga kirish: AKT xizmatlari kompaniyalarga chet el bozorlariga kirishni osonlashtiradi, xalqaro hamkorlikni kuchaytiradi va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashish imkonini beradi.

➤ yangi biznes modellarining paydo bo'lishi: Elektron tijorat, platform bizneslari (masalan, Uber, Airbnb), fintech va boshqa raqamli biznes modellarining rivojlanishi AKT xizmatlariga bog'liq. Bu yangi ish o'rinlarining yaratilishi va innovatsiyalarni rag'batlantirishga olib keladi.

AKTning ko'plab imkoniyatlari mavjud bo'lsada uning bir nechta muammolari ham mavjuddir. Ushbu muammolar turli xil darajada, jamiyat, shaxslar va butun dunyo miqyosida nomoyon bo'ladi. Quyida AKTning asosiy muammolari keltirilgan:

➤ kiberxavfsizlik. Shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari, moliyaviy resurslari va tizimlarining xavfsizligiga tahdid solibgina qolmasdan ularning muhim ma'lumotlarining o'g'irlanishi yoki sotishi oqibatida katta zararlar keltirishi mumkin.

➤ iqtisodiy tengsizlik. Internetga kirish imkoniyatining teng bo'lmaganligi ta'lim, ish va boshqa imkoniyatlarning tengsizlikka olib kelishi mumkin, hamda ba'zi odamlar yangi texnologiyalarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuningdek, avtomatlashtirish tufayli ba'zi ish o'rinlari yo'qolishi mumkin.

➤ ijtimoiy muammolar. Internet va ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha qaramlik odamlarning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Onlayn aloqa yuzma-yuz muloqotning o'rnini to'liq bosa olmaydi va bu ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. Soxtalashtirilgan yangiliklar va dezinformatsiya jamoatchilik fikriga salbiy ta'sir ko'rsatib oqibatida ijtimoiy tartibsizliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun turli xil choralar ko'rish kerak. Albatta bu muammolarni engish va AKTning afzalliklaridan xavfsiz va samarali foydalanishni ta'minlash zarur.

Xulosa va takliflar.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida AKT xizmatlaridan foydalanishning ijobiy tomonlari juda ko'p. U iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, ijtimoiy hayotni yaxshilaydi va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Biroq, raqamli tengsizlik, kiberxavfsizlik va ijtimoiy muammolar kabi qiyinchiliklarni hisobga olib, AKT xizmatlaridan oqilona va samarali foydalanish uchun strategiya va siyosatlar ishlab chiqish va amalga oshirish juda muhimdir. Bu esa AKT infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va raqamli tengsizlikni kamaytirish choralarini o'z ichiga oladi. Faqat shu yo'l bilan raqamli iqtisodiyotning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanish va jamiyatning barcha a'zolari uchun adolatli va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Botir Xo'jayev (2021) *"Raqamli iqtisodiyotga o'tish: O'zbekiston tajribasi"*.

Don Tapscott (1995) *"Raqamli iqtisodiyot: yangi iqtisodiy tartibotning va'dalari va xavflari"*.

Klaus Schwab (2016) *"To'rtinchi sanoat inqilobi"*.

Manuel Castells (1996-1998) *Axborot asri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat"*.

Rajaboev S. S. *Technologies of Using Multimedia Tools in Teaching Economic Sciences* //Spanish Journal of Innovation and Integrity.

Rajaboyev S. *Экологическое образование в целях устойчивого развития территорий* //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

Rajaboyev, S. (2024). ZAMONAVIY SHAROITDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(12), 160–166. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss12-pp160-166>

Robert Solow (1957) "Texnologiya va iqtisodiy o'sish".

Rustam Karimov (2020) "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi: holati, muammolari va istiqbollari".

Shodiyevich, R. S. ., Xusniddin Qizi, J. S. ., & Zafar qizi, O. F. . (2024). Benefits of Social Networks in the Field of Services. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 84–88. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1533>

Shodiyevich, R. S., Shodiyevich, R. S., & o'g'li U. S. B. (2023). ACCOUNTING ISSUES IN THE DIGITAL ECONOMY. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, 4(6), 80-84. Retrieved from <https://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.php/CAJMTCS/article/view/475>

Ражабоев Ш. Ш. РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ //ББК 65.29 я43 Т384. – 2022. – С. 54.

Ражабоев Ш. Ш. ЦИФРОВИЗАЦИЯ И ЗЕЛЕНЫЙ СЕКТОР В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ //ББК 65.05 П 78. – С. 596.

Ражабоев Ш. Ш. Экологическое образование в целях устойчивого развития территорий.–2022 //Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch. – 2022.